

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tursunova Parvina Mamurjonovna NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
3. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
4. Рахматова Гулнора Турсиновна ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
5. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
6. Ибаев Анвар Журабекович ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
7. Т.А.Эргашева СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
13. Aybibi ISKANDAROVA O‘ZBEK KORPUSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	83
15. Воҳидов Абдувахоб САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

17. Zaynutdinova Durdona Asatovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
19. Ochilova Noila Farmonovna O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI (ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
24. N.M.Shamuradova INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
26. Башарова Лейла РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
27. Ivanova Alena Yadmagieвна TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
29. Asqar Abdullaev SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
31. Сабина Авазжоновна Махмудова ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Davlatova Hulkaroy Uktamovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasasi dotsenti

**RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL
O‘ZLASHTIRISH OMILLARI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20814820>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada raqamli muhitda bolalik: zamonaviy sharoitda til o‘zlashtirish omillari borasida fikr yuritiladi. Bu sohada ilmiy izlanish olib borgan horijlik va yurtimiz tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarining tahlili keltirilgan. Zamonaviy hayotimizga raqamli texnologiyalar shunchalik chuqur integratsiyalashganki, ularni kundalik turmushimizdan butunlay chetlashtirish deyarli imkonsiz holga kelgan. Shu boisdan, maqolamizda bolalarning smartfon kabi raqamli qurilmalar bilan nutqiy muloqot jarayonida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan til o‘zlashtirish omillari har tomonlama yoritiladi. Bolalik ontogenezining ilk bosqichlaridanoq bolalar raqamli kommunikatsiya vositalari bilan bevosita yoki bilvosita tarzda muloqotga kirishadilar.

Kalit so‘zlar: bolalik, raqamli muhit, ta’lim, tarbiya, til o‘zlashtirish, ontogenez, raqamli texnologiya, smartfon

Hulkaroy Uktamovna Davlatova

Associate Professor, Department of

Theoretical Aspects of the English Language

Andijan State Institute of Foreign Languages

**CHILDHOOD IN THE DIGITAL ENVIRONMENT: FACTORS OF LANGUAGE
ACQUISITION IN MODERN CONDITIONS****ABSTRACT**

This article examines childhood in the digital environment, focusing on the factors influencing language acquisition in modern conditions. It also provides an analysis of the scientific research conducted by both foreign and domestic scholars in this field. Digital technologies have become so deeply integrated into our modern lives that it is almost impossible to completely exclude them from our daily routines. Therefore, this article comprehensively highlights the key factors of language acquisition that require attention during children’s verbal interaction with digital devices such as smartphones. From the earliest stages of ontogenesis, children engage directly or indirectly with digital means of communication.

Keywords: childhood, digital environment, education, upbringing, language acquisition, ontogenesis, digital technology, smartphone

Давлатова Хулкаррой Уктамовна
Доцент кафедры теоретических аспектов английского языка
Андижанский государственный институт иностранных языков

ДЕТСТВО В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: ФАКТОРЫ ОВЛАДЕНИЯ ЯЗЫКОМ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается детство в цифровой среде, с акцентом на факторы овладения языком в современных условиях. Также представлен анализ научных исследований зарубежных и отечественных ученых в данной области. Цифровые технологии настолько глубоко интегрировались в нашу современную жизнь, что полностью исключить их из повседневной деятельности практически невозможно. В связи с этим в статье всесторонне освещаются факторы овладения языком, на которые необходимо обращать внимание в процессе речевого взаимодействия детей с цифровыми устройствами, такими как смартфоны. С самых ранних этапов онтогенеза дети прямо или косвенно вступают во взаимодействие с цифровыми средствами коммуникации.

Ключевые слова: детство, цифровая среда, образование, воспитание, овладение языком, онтогенез, цифровые технологии, смартфон

KIRISH. Mazkur kichik ilmiy tadqiqotimizda raqamli muhitda ta'lim va tarbiya olayotgan bolalarning nutqini shakllanishi va jamiyatda rivojlanish bosqichiga chiqishi, bunga ta'sir etuvchi omillar borasida fikr yuritimiz. Bizga ma'lumki, bolalar nutqining shakllanishi va tilni o'zlashtirish jarayoni XXI asrga kelib, bolalik fenomeni tubdan o'zgargan murakkab ijtimoiy-madaniy muhitda o'sib bormoqda. Bolalarning tilni o'zlashtirish jarayoni hozirgi vaqtda nafaqat an'anaviy ijtimoiy aloqalar oila, bog'cha, maktab, do'stlari davrasida, balki kengaytirilgan, texnologiyalar orqali vositalashgan raqamli makonda ham kechmoqda. Maqolamizda zamonaviy raqamli muhitda bolalarning ona tilini egallashiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilamiz. Ayniqsa lingvistik, psixolingvistik va lingvokognitiv omillar kesishgan nuqtada yuzaga kelayotgan yangi holatlar ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi.

AKT rivojlangan zamonaviy sharoitda bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishiga medianing ta'siri sezilarni darajada namoyon bo'lmoqda. Bolalik ontogenezing ilk bosqichlaridanoq bolalar raqamli kommunikatsiya vositalari bilan bevosita yoki bilvosita tarzda muloqotga kirishadilar. "Raqamli ommaviy axborot vositalari" atamasi mazmunan ko'p qirrali va semantik jihatdan keng qamrovli bo'lib, ushbu tadqiqot doirasida bolalar nutqiga uning ta'siri talqin qilinadi. Mazkur vositalarning eng ommaviy shakllaridan biri sifatida smartfonlarni misol tariqasida keltirishimiz joiz deb bildik, hozirgi zamonaviy texnika sharoitida qo'l telefoni kirib bormagan honadonni topish mushkul. Bugungi kunda hatto kichik yoshdagi bolalar ham ushbu qurilmalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lmasalar-da, ota-onalarining ulardan foydalanish faoliyatiga guvoh bo'lib, bilvosita raqamli muhit ta'sirini boshdan kechirmoqdalar.

Natijada bolalar uchun asosiy ijtimoiy muloqot manbai bo'lgan kattalarning raqamli kontent, jumladan onlayn muloqot va virtual ko'ngilochar axborotlarga chalg'ishi, bolaga yo'naltirilgan diqqat va verbal javob tezligini sezilarli darajada pasaytirgan holati, ular o'rtasidagi lingvopragmatik o'zaro aloqalarning zaiflashuvi, Shuningdek, bolada muloqotga bo'lgan motivatsiya va til o'zlashtirish jarayonining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimolini oshiradi.

ASOSIY QISM. Go'daklik davridayoq bolalar tomonidan raqamli texnologiyalarning, xususan smartfon kabi vositalarning kuzatilishi natijasida til rivojlanishi bilan ular o'rtasidagi dastlabki funksional bog'liqlik shakllanayotganiga ishora qiluvchi holatlar qayd etilmoqda. Ushbu bog'liqlik zamirida bolaning kognitiv va lingvistik taraqqiyotiga raqamli vositalar ta'sirining bevosita yoki bilvosita aspektlari yotadi. Mazkur masala bo'yicha uzoq muddatli va tizimli empirik tadqiqotlar hozirgi paytda yetarlicha keng ko'lamda olib borilmagan bo'lib, ilmiy adabiyotda ma'lumotlar soni cheklangan. Ayni vaqtda olmon yurti tilshunoslari Germaniyada olib borilayotgan BLIKK (Bedeutung des Bildschirmmedienkonsums im Kindesalter) nomli keng qamrovli ilmiy loyihada

aynan bolalar tomonidan raqamli qurilmalardan foydalanishning psixolingvistik, nevrologik hamda ijtimoiy-emosional oqibatlarini tahlil qilish maqsad qilingan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari hali to'liq e'lon qilinmagan bo'lib, ommaga faqat ayrim umumlashtirilgan xulosalar taqdim etilgan xolos. Shaxsiy fikrimizcha, bunday yondashuv bugungi kunda juda dolzarb va muhimdir, chunki raqamli texnologiyalar bolaning til rivojiga ta'sirini o'rganish orqali zamonaviy pedagogika va psixolingvistik amaliyotlarda yangi nazariy asoslar yaratishga imkon beradi. Biroq biz ushbu loyiha natijalarining hali to'liq e'lon qilinmagani va mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilganligi ilmiy jamoada muhokama va tahlil uchun cheklangan imkoniyatlarni yaratishini tanqid qilamiz. Bu esa tadqiqotning chuqurroq, aniq xulosalarini chiqarishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Germaniyalik tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotning asosiy e'tibori 0 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalarning raqamli vositalardan foydalanish tajribasining ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama yoritishga qaratilgan. Xususan loyiha doirasida ilgari surilgan markaziy savol — raqamli qurilmalardan foydalanishning kichik yoshdagi bolalarning lug'at boyligi hamda tilni idrok etish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi — o'zining murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Mazkur muammo yuzasidan olib borilayotgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda mavjud nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar ushbu ta'sirlarning barcha jihatlarini to'liq va mukammal aniqlash imkonini bermaydi. Buning asosiy sababi shundaki, bolalarning raqamli muhitdagi faoliyati ko'plab omillar, xususan individual xususiyatlar, madaniy muhit va ijtimoiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, kelgusida mazkur yo'nalishdagi tadqiqot natijalarini yanada chuqurlashtirish maqsadida ularni kengroq ijtimoiy, nevrologik hamda lingvistik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Bundan tashqari, raqamli qurilmalarning turli yosh guruhlariga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash uchun innovatsion va integrativ metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, BLIKK loyihasi til ontogenezinining yangi davrini ochishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, bizing shaxsiy tahlilimizda uning ilmiy natijalari keng jamoatchilikka ochiqroq, batafsil va tanqidiy muhokama uchun ko'proq asos bilan taqdim etilishi lozim. Faqat shunday yondashuv orqali raqamli texnologiyalarning bolalar til rivojiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini aniqroq baholash mumkin bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotimizda zamonaviy sharoit va raqamli muhitda bolalarning til o'zlashtirish omillari jarayonida smartfon, planshet hamda elektron kitoblarning ta'sirini o'rganishga alohida urg'u beriladi. Ushbu qurilmalar vositasida yuzaga keluvchi multimodal axborot oqimining bolalarning semantik qamrovi, idrok jarayoni va kommunikativ kompetensiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi ushbu ishning asosiy izlanish yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Mobil raqamli qurilmalar, ayniqsa smartfonlarning yuqori darajadagi funksional imkoniyatlari, tezkorlik bilan qo'llanilishi tufayli zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida muhim vosita sifatida ajralib turadi. Har doim deyarli qo'l ostida bo'ladigan ushbu qurilmalar foydalanuvchining turli ehtiyojlarini xususan axborotga ega bo'lish, dam olish, muloqot qilish va ko'ngilochar faoliyat bilan shug'ullanish kabi vazifalarni bir vaqtning o'zida qondira oladi. Smartfon yordamida nafaqat an'anaviy telefon aloqasi amalga oshiriladi, balki onlayn rejimda audiovizual kontentni tomosha qilish, interaktiv o'yinlarda ishtirok etish, raqamli shakldagi matnlarni o'qish, videokonferensiya shaklidagi muloqotlarni olib borish hamda global internet tarmog'ida zarur ma'lumotlarni izlab topish imkoniyati mavjud. Bu funksiyalarning ko'lamdorligi va multimodal tabiati ularning qo'llanilish sabablari va motivatsion omillarining ham turlicha bo'lishiga zamin yaratadi.

MUHOKAMA/NATIJALAR. Zamonaviy sharoitlarda ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarning parvarishi, uy-ro'zg'or yumushlari va mehnat faoliyati ko'pincha bir vaqtda va o'zaro bog'liq tarzda kechishi natijasida ota-onalar turli tashkiliy va psixologik murakkabliklarga duch keladilar. Shu sababli bolalarning raqamli qurilmalardan foydalanishi ko'plab holatlarda ota-onalar tomonidan muqobil strategik vosita sifatida qo'llab-quvvatlanadi. Bunda bir tomondan, bola raqamli qurilma bilan band bo'lgan vaqtda ota-onaning uy ishlarini to'siqsiz bajara olish imkoniyati yaratiladi; boshqa tomondan esa, ushbu qurilmalar orqali bola bilim olishga (masalan, raqam va harflarni o'rganish, xorijiy tillar bilan tanishish) yo'naltirilgan deb qaraladi. Aynan raqamli vositalarning

ta'limiy va kognitiv foyda keltirish darajasi, ko'plab mobil ilovalar va media mahsulotlar tomonidan faol tarzda ilgari surilmoqda, hamda reklama diskursining markaziy g'oyalari biriga aylangan.

Raqamli muhitda o'sayotgan bolalarning zamonaviy sharoitlarda til o'zlashtirish bo'yicha olib borilgan turli empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalar tomonidan televizor kabi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, ko'pincha farzandlar o'rtasidagi ziddiyatli ijtimoiy interaktsiyalarni (masalan, aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi bahs va tortishuvlarni) kamaytirish yoki o'zlarini bezovta qilayotgan bolalarni vaqtincha chalg'itish strategiyasi sifatida amalga oshiriladi. Ushbu amaliy yondashuvning motivatsion modeli smartfonlardan foydalanish holatlarida ham analogik tarzda namoyon bo'ladi.

Oilaviy nutqiy muloqotlarda raqamli qurilmalardan foydalanish, kundalik hayotdagi muayyan odatiy faoliyatlar bilan izchil bog'liq holda shakllanadi. Jumladan, ko'p millat bolalarining ovqatlanishi, yotishga tayyorlanishi yoki ertalab uyg'onish jarayonlarida raqamli vositalarning doimiy ishtiroki kuzatiladi. Shu bilan birga, jamoat transportlarida harakatlanish vaqtida, shaxsiy avtomobilda safar qilish, restoranlarda ovqatlanish yoki hatto uy yumushlarini bajarish davomida ham bolalarda raqamli qurilmalardan foydalangan holatlarini ko'rishimiz tabiiy holga aylanib bormoqda.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan amaliyotlarning asosida, bolaning emotsional holatini muvozanatlashtirish va uni vaqtincha tinchlantirish ehtiyoji yotadi. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, xususan daromad darajasi va ota-onalarning ta'lim saviyasi, bolalarning raqamli vositalardan foydalanish amaliyotiga muayyan tarzda ta'sir ko'rsatadi. Albatta, raqamli qurilmalardan foydalanish ham bolalarning nutqni o'zlashtirishiga, uni o'sishiga, rivojlanishiga salbiy va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ishchi oilasida o'sib-ulg'ayayotgan bolalarning til o'zlashtirish omillari va raqamli qurilmalar bilan o'tkazadigan vaqtidagi nutqiga e'tibor qaratsak, odatda nutqni kechikishiga, muloqotga kirishayotganda chegaralanganligi, so'z va so'z birikmalarining qisqa, noaniq bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, ziyoli ota-onalar farzandlarining media iste'molini nazorat qilishi, cheklovlar joriy etish hamda ushbu faoliyatni maqsadga muvofiq pedagogik mezonlar asosida yo'naltirishga ko'proq moyil bo'lishadi, bundan ko'ra, farzandlari bilan birgalikda nutqiy muloqot olib boradilar. Buning natijasida raqamli muhitda o'sayotgan bo'lishlariga qaramasdan muloqotga kirshuvchanlik yuqori darajasi, nutqning ravonligi, til o'zlashtirish omillarining o'sish holatlarini ko'ramiz.

Amerikalik media tadqiqotchilari Viktoria Rideout va Elizabet Hamellarning tadqiqotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, yuqoridagi biz keltirgan ikki toifadagi oilalardagi bolalarning 71 foizi, kattalar tomonidan kitob tinglash tajribasini boshdan kechirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yuqori daromadli oilalarda 92 foizni tashkil etadi.

The Common Sense Census tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ham mazkur tendensiyani tasdiqlaydi: bolalarning raqamli qurilmalar oldida o'tkazgan vaqt miqdori bilan ularning ota-onalarining iqtisodiy holati o'rtasida sezilarli korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan. Ushbu faktlar bolalar raqamli vositalar bilan qanday sharoitda va qanday motivatsiyalar asosida muloqotda bo'lishlarini belgilovchi muhim ijtimoiy omillar sifatida qaralishi zarurligini ko'rsatadi.

Leksik boylik va tilni reseptiv tarzda idrok etish qobiliyati bolaning ilk ontogenetik taraqqiyot bosqichlarida bosqichma-bosqich rivojlanib boradigan murakkab kognitiv-lingvistik jarayon hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, taxminan 6 oylikdan boshlab bolalar fonetik jihatdan turli tovushlarni ishlab chiqarishni boshlaydilar; bu tovushlar asta-sekinlik bilan ona tiliga xos prosodik xususiyatlar (intonatsiya, ritm, urg'u) bilan uyg'unlashib, fonologik tizimga moslasha boradi.

Raqamli muhitda nutqni rivojlanayotgan bolalarning og'zaki so'zlarni artikulyatsiya qilishdan avval, u o'zining atrof-muhitdagi kommunikativ ehtiyojlarini asosan ya'ni imo-ishora orqali ifoda etishga moyil bo'ladi. Xususan 9–12 oylik davr oralig'ida bolalarda muayyan predmet yoki holatni ko'rsatish orqali o'z istaklarini bildirishga intilish kuzatiladi. Bunday gestikulyativ ya'ni imo-ishoralar otqali signallar odatda kattalar tomonidan verbal tarzda, ya'ni bola tomonidan ko'rsatilgan obyektning til vositasida nomlash orqali qabul qilinadi, ya'ni bu jarayonda narsa-predmetlarni bola subtulida nomlaydi, masalan: mashinani "didit", choyni "umma" kabi. Natijada bu interaktiv

muloqot shakli bolaning qabul qiluvchi til kompetensiyasi va leksik zaxirasining shakllanishida muhim ijtimoiy va semantik omil sifatida xizmat qiladi.

Mazkur holat kech nutq rivoji bilan tavsiflanadigan (“late talker”) bolalar bilan olib borilgan tadqiqotlar orqali ham o‘z ilmiy asosini topgan. Agar bunday bolalar avvalgi bosqichlarda gestikulyatsiyalardan kam foydalangan bo‘lsa, keyingi bir yil mobaynida ularning ekspressiv til qobiliyati imo-ishoraviy repertuari boy bo‘lgan tengqurlariga nisbatan ancha past darajada bo‘lishi kuzatilgan. Til rivojining keyingi bosqichida bola bir so‘zli ifodalar yordamida predmet va hodisalarni belgilashga o‘tadi. Bu davr odatda taxminan olti oy davom etadi. Ushbu bosqichda bolaning faol lug‘at boyligi o‘rtacha 50–80 ta atamani tashkil etadi, passiv lug‘at zaxirasi esa 200 atrofida bo‘lishi mumkin. Yosh o‘sib borgani sayin bola ikki so‘zli sintaktik birliklar yasashga kirishadi, bu esa leksik zaxiraning sezilarli kengayishiga turtki bo‘ladi.

Shveysariyalik olim ayol Valter Charles Langer, raqamli muhitda o‘sayotgan bolalarning til o‘zlashtirish omillariga oid tadqiqotlari natijasida Ikki yoshdan boshlab bolalar orasida lingvistik rivojlanish sur‘atlari o‘rtasida sezilarli darajada o‘sa boshlaydi. Masalan, ushbu yoshda ayrim bolalarning faol lug‘at zaxirasi 48 taga teng bo‘lsa, boshqalarda bu ko‘rsatkich 456 taga yetishi mumkin.

XULOSA. Zamonaviy lingvistik va psixologik tadqiqotlar ushbu integratsiyani chuqur tahlil qilishga imkon bermoqda. Natijada bola tili va tafakkurining bir-biriga ta’siri nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy pedagogika, logopediya va psixologiyada ham keng qo‘llanilmoqda. Til va tafakkur bolalik davrida uzviy bog‘liq ravishda shakllanadi. Lingvokognitiv yondashuv bolalarda so‘z boyligi, sintaktik qurilma, semantik maydon va tushuncha shakllanishini kognitiv strukturalar bilan uyg‘un holda tahlil qiladi. Ushbu yondashuvda bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari, metaforik fikrlash, kategoriya hosil qilish, kontsept va freymlar orqali tafakkurning chuqurlashuvi muhim rol o‘ynaydi.

FOYDAALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Brandon, T./Radesky, J: Technoferece: Parent Distraction With Technology and Associations With Child Behavior Problems. 2018. – P. 1
2. Rheinische Fachhochschule Köln (Hrsg.) RFH Medienstudie BLIKK: Übermäßiger Medienkonsum gefährdet Gesundheit von Kindern und Jugendlichen. 2017. – P. 189.
3. http://www.rfh-koeln.de/aktuelles/meldungen/2017/medienstudie_blikk/index_ger.html [Murojaat sanasi: 03.04.2026]
4. Radesky, Jenny/Schumacher, Jayna/Zuckerman, Barry: Mobile and Interactive Media Use by Young Children: The Good, the Bad, and the Unknown.
4. Rideout, Victoria/Hamel, Elizabeth. The Media Family: Electronic Media in the lives of infants, toddlers, pre schoolers and their parents, Rideout, Victoria/Hamel, Elizabeth: The Media Family: Electronic Media in the lives of infants, toddlers, preschoolers and their parents. 2006. –P. 59.
5. Lohaus, Arnold/Vierhaus, Marc: Entwicklungspsychologie des Kindes– und Jugendalters für Bachelor, 3. Aufl., Berlin/Heidelberg: Springer, 2015. – P. 145.
- Iverson, Jana/Goldin– Meadow, Susan: Gesture Paves the Way for Language Development,
6. Özçalışkan, Seyda/Dimitrova, Nevena: How Gesture Input Provides a Helping Hand to Language Develop ment, https://scholarworks.gsu.edu/cgi/viewcontent.cgi?referer=https://www.google.at/&httpsredir=1&article=1073&context=psych_facpub 2013. – P. –3– 5 [Murojaat sanasi: 03.04.2026]
7. Walter– Laager, Catherine u. a: Kleinkinder erkunden die moderne Welt: Welche Rolle spielen digitale Medien respektive Druckmedien für den Wortschatzerwerb sowie das frühkindliche Interesse?, 2014. – P. 99.
- http://www.unifr.ch/pedg/zeff/de/pdf/2014_07_07_Schlussbericht%20final.pdf [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

8. https://cdn.cnn.com/cnn/2017/images/11/07/csm_zeroeight_full.report.final.2017.pdf?utm_source [Murojaat sanasi: 13.08.2025]

9. <http://www2.pitt.edu/~icl/publications/iverson%20&%20goldin-meadow%202005.pdf> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

10. <http://pediatrics.aappublications.org/content/pediatrics/135/1/1.full.pdf> 2015. – P. 39 [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000